Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta'minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o'g'li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o'g'li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaikulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug'urta bozorlarida investisiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	
O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	



Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'rni.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	
Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	



Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari.....	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	
"Yashil" iqtisodiyotga o'tishda xalqaro hamkorlik: O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo'jaev Xadyatillo Billoxon o'g'li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O'zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budget siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag'allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи	1687
Амонова Хафиза	
O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari.....	1690
O'rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Budget tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba	1695
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich	
"Ichki iste'mol uchun qayta ishlash" bo'xona protseduralarini O'zbekiston sharoitida qo'llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To'qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfaizovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo'llari va strategiyalar	1714
Mo'minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklastar tizimi rivojlantirish yo'nalishlari va iqtisodiy samaradorligi	1718
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo'l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля)	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o'g'li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo'lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko'chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
O'zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo'nalishlari	1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....	1754
Axmedov Zafarjon A'zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich	
Kichik biznes korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar	1762
Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o'g'li	
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo'llari	1768
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari	1772
Madartov Bahrom Quvondiqovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida o'z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritishni takomillashtirish.....	1776
Axmedov Latayibxon Mamitxonovich	



Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo'llari.....	1780
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish tendensiyalari.....	1785
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
O'zbekiston va islom taraqqiyot banki: hamkorlik va rivojlanish istiqbollari.....	1789
Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi	
Xodimlarni rag'batlantirish tizimida mehnatga haq to'lash	1793
Xamdamov Nuriddin Abdimalikovich	
Mahalliy budget daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'rni	1797
Kimsanboyeva Maftuna Baxodirovna	
Dunyo mamlakatlarida xorijiy talabalar oqimi tahlili va ta'lim eksportining demografik salohiyati	1802
Abdullayev Javoxir Jaxongirovich	
Davlat qarzini boshqarish amaliyotini takomillashtirish	1809
Djurayev Paxlavonjon Usarovich	
Mintaqada chakana savdoni rivojlantirish istiqbollari.....	1815
Ismoilov Shohjahon O'tkir o'g'li, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	1819
Omarov Mamanbiy Allabergenovich	
Mathematical statistics in biology and medicine	1826
Vokhidov Alikul, Orazbaeva Ayjamal, Tog'amurotova Jasmina, Turopova Dildora	
"Yashil" energetika salohiyatini ro'yobga chiqarishda xatarlar va muammolar: O'zbekiston sharoitida tahlil va yechimlar	1833
Nasretdinov Nodir Tulqinovich	
Aglomeratsiyalar ekologik barqarorligi: koreya respublikasi tajribasi va o'zbekistonda uni qo'llash imkoniyatlari.....	1837
Shohruh Shuhrat o'g'li Mardonov	
Sanoat sohasida energiya samaradorligini oshirishning iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1843
Iminov Farxodjon Tohirjonovich	
Современные принципы и дальнейшее совершенствование налогового администрирования в узбекистане.....	1848
Буранова Лола Вахобовна, Рахимова Шахло Ражапбоевна	
Роль малого и частного бизнеса в инновационном развитии экономики узбекистана: сравнительно-аналитический подход	1858
Мадраимова Согдиана Равильевна	
Sayyohlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish va ularning huquqiy huquqlarini tiklash mexanizmlari.....	1864
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Sanoat korxonalarida inqrozga qarshi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	1869
Muxammadov Umarjon Muxammad o'g'li	
O'zbekiston respublikasida elektr energiyasi ta'minoti hajmini yalpi ichki mahsulot hajmiga ta'sirini ekonometrik tahlil qilish.....	1873
Fayziyev Rabim Alikulovich	
Xalqaro kompaniyalarda Big Data va biznes jarayonlarini innovatsion boshqarish	1885
To'g'onov Ibrohimxo'ja, Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li	
Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	1889
Darxanova Umida	



TRANSPORT VOSITALARI EGALARI FUQAROLIK JAVOBGARLIGI SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI

Darxanova Umida

Toshkent xalqaro universiteti
malakaviy tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash tizimining institutsional asoslari, ularning zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari atroficha tahlil qilinadi. Sug'urta bozorining tarkibiy jihatlar, sug'urta kompaniyalari faoliyati, regulyator tashkilotlar roli, fuqarolarning huquqiy xabardorligi va axborot texnologiyalarining qo'llanilishi singari jihatlar asosida tizimning samaradorligi baholanadi. Maqolada, ayniqsa, transport vositalari ishtirokida sodir bo'ladigan yo'l-transport hodisalari oqibatida uchraydigan zararni qoplashda ushbu sug'urta turining muhim ijtimoiy va iqtisodiy funksiyasi yoritib beriladi. Shuningdek, amaldagi huquqiy-me'yoriy hujjatlarning tahlili asosida tizimda mavjud kamchiliklar va institutsional muammolar aniqlanadi.

Umuman olganda, maqola transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasi institutining zamonaviy talablari asosida isloh qilinishi, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, aholi ishonchini oshirish va yo'l harakati xavfsizligini yuksaltirishdagi rolini mustahkamlashga qaratilgan. Ushbu ilmiy izlanish natijalari soha mutaxassislari, siyosat ishlab chiquvchilar va regulyatorlar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: fuqarolik javobgarligi sug'urtasi, transport vositalari, institutsional rivojlanish, sug'urta bozori, yo'l-transport hodisasi, regulyator, raqamlashtirish, huquqiy baza, sug'urta kompaniyalari, moliyaviy barqarorlik.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the institutional foundations, current state, and development prospects of the mandatory civil liability insurance system for vehicle owners in the Republic of Uzbekistan. The effectiveness of the system is assessed based on structural aspects of the insurance market, the activities of insurance companies, the role of regulatory institutions, citizens' legal awareness, and the use of information technologies. The article particularly highlights the significant social and economic functions of this type of insurance in compensating for damages resulting from road traffic accidents involving motor vehicles. Furthermore, the current legal and regulatory documents are analyzed to identify existing shortcomings and institutional challenges within the system.

In general, the article focuses on the reform of the civil liability insurance institution for vehicle owners in accordance with modern requirements, ensuring financial stability, increasing public trust, and strengthening its role in enhancing road safety. The findings of this scientific research may have practical value for sector specialists, policymakers, and regulatory authorities.

Key words: civil liability insurance, motor vehicles, institutional development, insurance market, road traffic accidents, regulator, digitalization, legal framework, insurance companies, financial stability.

Аннотация: В данной статье представлен всесторонний анализ институциональных основ, текущего состояния и перспектив развития системы обязательного страхования гражданской ответственности владельцев транспортных средств в Республике Узбекистан. Эффективность системы оценивается на основе структурных характеристик страхового рынка, деятельности страховых компаний, роли регулирующих органов, правовой осведомленности граждан и применения информационных технологий. Особое внимание в статье уделено важной социальной и экономической функции данного вида страхования в компенсации ущерба, причинённого в результате дорожно-транспортных происшествий с участием транспортных средств. Также проводится анализ действующих нормативно-правовых актов, на основе которого выявляются существующие недостатки и институциональные проблемы системы.

В целом, статья направлена на модернизацию института страхования гражданской ответственности владельцев транспортных средств в соответствии с современными требованиями, обеспечение финансовой устойчивости, повышение доверия населения и укрепление роли страхования в повышении безопасности дорожного движения. Результаты данного научного исследования могут иметь практическое значение для специалистов отрасли, разработчиков политики и регулирующих органов.

Ключевые слова: страхование гражданской ответственности, транспортные средства, институциональное развитие, страховой рынок, дорожно-транспортные происшествия, регулятор, цифровизация, правовая база, страховые компании. финансовая стабильность.



KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi yo'l-transport tizimida avtomobillar sonining keskin ortib borishi yo'l harakati ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash va ularga yetkazilgan zararlarni qoplash mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yanada keskinlashtirmoqda. Davlat statistika qo'mitasining 2023-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda ro'yxatdan o'tgan yengil avtomobillar soni 4,5 milliondan oshgan bo'lib, bu 2015-yildagiga nisbatan deyarli 40% ga ko'pdir¹. Shu bilan birga, yo'l-transport hodisalari soni ham ortib bormoqda: Ichki ishlar vazirligi yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda 11 mingdan ortiq YTH qayd etilgan, ularda 2 mingdan ortiq fuqaro jarohat olgan va 1 mingga yaqin kishi hayotdan ko'z yumgan².

Bunday vaziyatda transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash tizimi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va huquqiy jihatdan ham muhim vositaga aylanadi. Ushbu sug'urta turi fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va mulkiga yetkazilgan zararlarni kompensatsiya qilish orqali adolat tamoyilini ta'minlaydi, ayni vaqtda yo'l harakati ishtirokchilari o'rtasida mas'uliyat hissini kuchaytiradi.

2008-yilda qabul qilingan "Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risida"gi Qonun ushbu yo'nalishda muhim huquqiy poydevor bo'lib xizmat qilmoqda³. Biroq amaliyotda mazkur institutning samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan institutsional mexanizmlar, ya'ni sug'urta kompaniyalari faoliyatini nazorat qilish, fuqarolarga qulay xizmatlar ko'rsatish, shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibini soddalashtirish va elektron tizimlarni keng joriy etish kabi jihatlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Moliya bozorini rivojlantirish agentligining hisobotlariga ko'ra, 2023-yilda ushbu sug'urta turi bo'yicha yig'ilgan mukofotlar umumiy sug'urta mukofotlarining faqat 22,5 foizini tashkil etgan⁴.

Jahon tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, rivojlangan mamlakatlarda transport vositalari uchun fuqarolik javobgarligini sug'urtalash sohasi yuqori raqamlashtirish darajasi, sug'urta fondlari faoliyati, mustaqil nazorat organlari va shaffoflik tamoyillari asosida faoliyat yuritadi. Xususan, Germaniya, Janubiy Koreya va Turkiya kabi mamlakatlarda ushbu tizim yo'l harakati xavfsizligi va fuqarolarning moliyaviy himoyasi uchun eng muhim institutsional omillardan biri sifatida e'tirof etiladi⁵.

Shu bois, ushbu maqolada O'zbekistonda transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini sug'urtalash tizimining mavjud holati, institutsional muammolari, rivojlanish yo'nalishlari, xalqaro tajriba asosida milliy modelni takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari ushbu sohani tartibga solishda ishtirok etuvchi regulyatorlar, siyosat ishlab chiquvchilar va sug'urta kompaniyalari uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOT SHARHI

Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash tizimi bo'yicha adabiyotlar tahlili ushbu institutning huquqiy, iqtisodiy va institutsional asoslarini chuqur o'rganishga imkon beradi. Bu sohaga oid ilmiy-analitik manbalar, asosan, sug'urta bozori rivoji, fuqarolik javobgarligi mexanizmlari, yo'l harakati xavfsizligi, davlat regulyatorlarining roli va xalqaro tajriba doirasida olib borilgan tadqiqotlarni qamrab oladi.

O'zbekistonda bu yo'nalish bo'yicha dastlabki tadqiqotlar 2008-yilda "Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risida"gi Qonun qabul qilingach shakllana boshladi. Xususan, M. Karimov transport vositalariga tegishli majburiy sug'urta tizimining huquqiy asoslarini tahlil qilgan bo'lib, unda qonunchilikdagi umumiy me'yorlar va ularning amaliy tatbiqi ko'rib chiqilgan⁶. B. Norqulov esa ushbu sug'urta turi orqali yo'l harakati ishtirokchilarining moliyaviy himoyasini ta'minlash muammolarini yoritgan. U o'z ishida sug'urta to'lovlari kechiktirilishi, da'vo jarayonining murakkabligi va fuqarolarning ishonch darajasi pastligi kabi omillarni asosiy to'siq sifatida keltirgan⁷.

Sug'urta bozori rivojida davlat roli haqida yozgan I. Usmonxo'jayev (2019) fikricha, O'zbekistonda sug'urta madaniyati pastligi, xizmatlarning raqamlashtirilmaganligi va nazorat mexanizmlarining yetarlicha kuchli

1 O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. Avtomobil transporti bo'yicha statistik byulleten, 2023-yil. <https://stat.uz>

2 Ichki Ishlar Vazirligi Yo'l Harakati Xavfsizligi Bosh boshqarmasi. YTH statistikasi – yillik axborot, 2023-yil.

3 O'zbekiston Respublikasi Qonunlari. "Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risida"gi Qonun, 2008-yil, 22-aprel, №ZRU-160.

4 Moliya Bozorini Rivojlantirish Agentligi. Sug'urta sektori bo'yicha tahliliy hisobot, 2023-yil. <https://mf.uz>

5 OECD Insurance Market Trends Report, 2022.

6 Karimov M. (2011). Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasining huquqiy asoslari. Toshkent: TDYU ilmiy jurnali, №1, 45–49-betlar.

7 Norqulov B. (2017). O'zbekistonda fuqarolik javobgarligini sug'urtalash mexanizmlarining takomillashuvi. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, №3, 66–71-betlar.



emasligi institutsional infrastrukturani zaiflashtiradi⁸. Shu bilan birga, u zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va axborot tizimlarini yaratish orqali tizimning samaradorligini oshirish zarurligini ta'kidlaydi.

Xalqaro adabiyotlarda esa transport vositalari egalari javobgarligi sug'urtasi sohasi raqamlashtirish, moliyaviy barqarorlik va mustaqil regulyatorlarning ishtiroki asosida rivojlanayotgani qayd etiladi. OECD tomonidan tayyorlangan Insurance Market Trends Report hisobotida fuqarolik javobgarligi sug'urtasi yo'l harakati xavfsizligini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida e'tirof etilgan. Germaniyada, masalan, har bir avtomobil uchun sug'urta shartnomasi bo'lmagan taqdirda, transport vositasi yo'llarda harakatlanish huquqiga ega emas⁹. Bu esa tizimning majburiylik darajasini va moliyaviy intizomni ta'minlaydi.

Janubiy Koreyada esa Korea Insurance Development Institute tomonidan avtomatik baholash tizimi joriy qilingan bo'lib, u sug'urta da'volarining shaffof va tezkor ko'rib chiqilishini ta'minlaydi¹⁰. Turkiya sug'urta bozorida esa to'lov kafolati mexanizmi orqali sug'urta kompaniyalari faoliyati ustidan davlat kafolati tizimi ishlab chiqilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda transport vositalari soni yildan-yilga keskin ortib bormoqda. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2015-yilda ro'yxatdan o'tgan avtomobillar soni 3 million atrofida bo'lgan bo'lsa, 2023-yil oxiriga kelib bu ko'rsatkich 4,5 millionga yetdi¹¹. Ushbu o'sish transport harakati ishtirokchilarining sonini ko'paytiribgina qolmay, fuqarolik javobgarligi bilan bog'liq tavakkalchilik darajasini ham keskin oshirmoqda.

Shu bilan birga, Moliya bozorini rivojlantirish agentligi 2023-yilgi hisobotiga ko'ra, fuqarolik javobgarligi sug'urtasi bilan qamrab olingan transport vositalari soni umumiy avtomobillar sonining atigi 64,7 foizini tashkil qilgan¹². Bu degani, 1,5 milliondan ortiq avtomobil (ya'ni har uch avtomobildan biri) sug'urta qilinmagan holatda harakatda ishtirok etmoqda. Bu holat qonunchilik nuqtai nazaridan bevosita huquqbuzarlik hisoblanadi, chunki "Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risida"gi Qonunga (2008-yil, №ZRU-160) ko'ra, har bir avtotransport vositasi egalari har yili sug'urta shartnomasini tuzishi shart¹³.

Qamrov pastligiga ta'sir etuvchi omillar:

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar. Sug'urta xizmatlarining narxi o'rtacha 120–250 ming so'mni tashkil etadi, bu ayrim kam daromadli qatlamlar uchun nisbatan yuqori xarajat sanaladi. Boshqa tomondan, haydovchilarning "sug'urta to'lovi faqat tekshirishdan o'tish uchun kerak" degan yondashuvi ushbu institutni faqat qog'ozda bajariladigan formal holga aylantirgan.

Nazoratning sustligi. Sug'urtalanmagan avtomobillarni aniqlash mexanizmi yo'l harakati inspektorlari tomonidan qo'lda olib boriladi, avtomatik deteksiya tizimi (masalan, kameralar orqali real vaqt rejimida QR kodni tekshirish) amalda mavjud emas. Bu esa noqonuniy holatlarni "ko'zdan qochirish" imkonini oshiradi.

Hududiy tafovutlar. MBRAning 2022-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, sug'urta qamrovi Toshkent shahrida 82 foizga yetgan bo'lsa-da, ba'zi viloyatlarda (Qashqadaryo, Surxondaryo, Farg'ona) bu ko'rsatkich 45–50 foiz atrofida bo'lgan¹⁴. Bu holat hududiy infratuzilma, axborot yetishmovchiligi, va kompaniyalar faoliyatining nomutanosibligi bilan izohlanadi (1-jadval).

Aholining sug'urta madaniyati past bo'lishi, sug'urtaning qanday ishlashi, nima uchun zarurligi haqida yetarli tushunchaga ega emasligi fuqarolik javobgarligi sug'urtasini majburiy bo'lsa-da, amalda ixtiyoriydek qabul qilinishiga sabab bo'lmoqda. So'rovnoma shuni ko'rsatmoqdaki, 40% dan ortiq haydovchilar sug'urtaning vazifasi haqida noto'g'ri yoki noaniq tasavvurlarga ega¹⁵.

8 Usmonxo'jayev I. (2019). Sug'urta bozorini raqamlashtirish va davlat ishtirokining kuchaytirilishi. Moliya ilmiy-amaliy jurnali, №4, 27–32-betlar.

9 OECD. (2022). Insurance Market Trends Report. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development. <https://www.oecd.org/insurance/z>

10 Turkish Insurance Association. (2022). Insurance Sector Annual Review. Ankara.

Bundesanstalt für Finanzdienstleistungsaufsicht (BaFin). (2021). Motor Vehicle Liability Insurance Overview. Bonn.

11 O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. "Transport sohasi statistik byulleteni – 2023." <https://stat.uz>

12 Moliya Bozorini Rivojlantirish Agentligi (MBRA). "Sug'urta bozori faoliyati tahlili – 2023." <https://mf.uz>

13 O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risida", 2008-yil 22-aprel, №ZRU-160.

14 MBRA hududiy sug'urta ko'rsatkichlari bo'yicha statistik tahlil, 2022-yil 4-chorak.

15 O'zbekiston sug'urta sohasi bo'yicha jamoatchilik so'rovi natijalari, 2023 (muallif tomonidan o'tkazilgan so'rov asosida).



1-jadval. Statistik xulosa.

Yil	Ro'yxatdan o'tgan avtomobillar (ming)	Sug'urta qamrovi (%)	Sug'urtalanmagan avtomobillar (ming)
2019	3300	51.2	~1 610
2020	3550	53.5	~1 650
2021	3800	56.0	~1 670
2022	4200	59.8	~1 690
2023	4500	64.7	~1 590

Garchi sug'urta qamrovi yilma-yil oshib borgan bo'lsa-da, mutlaq sonlarda sug'urtalanmagan transport vositalari soni 1,5 million atrofida barqaror saqlanib qolmoqda. Bu esa tizimning yillik "turg'un muammosi" sifatida baholanadi va uni institutsional islohotlarsiz hal etish qiyin.

Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasi institutining eng dolzarb muammolaridan biri – bu to'lovlar tizimining samaradorligi va shikoyatlar bilan ishlash mexanizmining sustligidir. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, sug'urta kompaniyalari hodisa sodir bo'lganidan so'ng ma'lum muddatda (odatda 15 ish kuni ichida) zararni baholashi va to'lovni amalga oshirishi kerak.

Moliya bozorini rivojlantirish agentligi (MBRA) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasi bo'yicha da'volarning o'rtacha ko'rib chiqilish muddati 15–20 ish kunini tashkil etgan. Bu esa O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida nazarda tutilgan odil va tezkor ko'rib chiqish prinsiplari bilan mos kelmaydi.

Shuningdek, MBRAga kelib tushgan shikoyatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2023-yilda umumiy hisobda 3260 ta fuqarolik javobgarligi sug'urtasiga oid murojaatlar ro'yxatga olingan. Ushbu murojaatlarning taxminan 60 foizi to'lovlarning kechiktirilganligi yoki rad etilganligi bilan bog'liq bo'lgan (2-jadval).

O'zbekiston sug'urta bozorining amaliy holatini chuqur tahlil qilish natijasida fuqarolik javobgarligi sug'urtasining institutsional samaradorligini cheklab turgan bir qator tizimli muammolar aniqlangan bo'lib, ularning asosiy sabablari quyidagicha guruhlashtiriladi:

Sug'urta kompaniyalari tomonidan o'z majburiyatlarini kech bajarish.

Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasi bo'yicha da'vo to'lovlarning asosiy qismi belgilangan muddatdan kechikib amalga oshirilmoqda. Bunda sug'urta kompaniyalari ko'pincha rasmiy javoblarda da'vo hujjatlari "to'liq emas", "avtotexnik ekspertiza hali yakunlanmagan" yoki "aybdor aniqlanmagan" kabi sabablarni keltiradi. Bu kabi javoblar sug'urta to'lovining muayyan chegarasini noma'lum muddatga cho'zadi. Aksariyat hollarda, bunday kechikishlar texnik yoki huquqiy muammolar bilan emas, balki kompaniyaning likvidlik (to'lovga layoqatlilik) muammolari bilan bog'liq bo'ladi¹⁶. Bundan tashqari, hujjatlar to'liq taqdim etilgan holatlarning o'zida ham qaror chiqarish kechiktiriladi, bu esa kompaniya tomonidan moliyaviy risklarni kechiktirish orqali boshqarish amaliyotini ko'rsatadi.

Baholash va ekspertiza mexanizmlarining markazlashmaganligi.

Sug'urtalovchilar tomonidan olib boriladigan texnik baholash va ekspertiza ishlari har bir kompaniya tomonidan o'z xohishiga ko'ra mustaqil baholovchi sub'yektlar orqali amalga oshiriladi. Bu esa baholash natijalarining shaffofligiga va neytralligiga putur yetkazadi. Ayrim holatlarda, da'vogarning roziligisiz yoki ishtirokisiz baholovchi tomonidan transport vositasiga baho beriladi, bu esa fuqarolarning adolatli va haqqoniy ekspertizadan foydalanish huquqini buzadi. Xalqaro tajriba (masalan, Germaniya va Koreya) shuni ko'rsatadiki, texnik ekspertiza mustaqil va davlat litsenziyasiga ega baholovchilar reyestri orqali olib boriladi, bunda har bir baholash holati huquqiy va moliyaviy jihatdan izchil nazorat ostida bo'ladi.

Sug'urta polisleri va shartnomalarning standart emasligi.

O'zbekistondagi sug'urta kompaniyalari o'rtasida fuqarolik javobgarligi sug'urtasi bo'yicha yagona, birlashtirilgan polis shakli va xizmat ko'rsatish protokollari muhim. Ayni kompaniyaga qarab turlicha tariflar, ehtimoliy cheklavlar (masalan, maksimal to'lov miqdori, istisno holatlar), va huquqiy javobgarliklar belgilanadi. Bunday holat aholining sug'urta shartlarini tushunmasligiga, ularga ishonchsizlik bilan yondashishiga olib keladi. Ko'plab fuqarolar sug'urta polisini faqat YHXBB tomonidan tekshiruvdan o'tish vositasi sifatida ko'radi. Natijada, da'vo holati yuzaga kelganda shartnoma mazmunidagi huquqiy chegaralar va istisno holatlar haqida xabarsiz bo'lganligi bois, ularning huquqlari buziladi.

Shikoyatlarni ko'rib chiqishning formal xarakteri.

Moliya Bozorini Rivojlantirish Agentligi (MBRA) huzurida faoliyat yurituvchi shikoyatlarni ko'rib chiqish komissiyalari ko'pincha protseduraviy yoki formal yondashuv asosida ishlaydi. Komissiyalar tarkibida sug'urta

16 Moliya Bozorini Rivojlantirish Agentligi. (2023). Sug'urta sektori faoliyatiga oid yillik tahliliy hisobot. <https://mf.uz>



sohasi mutaxassislari mavjud bo'lsa-da, ular ko'pincha kompaniya taqdim etgan rasmiy hujjatlarga tayanadi, da'vogar-fuqaroga esa o'zining da'vosini mustaqil ekspertizalar bilan isbotlash imkoniyati yetarli darajada berilmaydi. Bu esa MBRAning mustaqil regulyatorlik funksiyasini shubha ostiga qo'yadi va fuqarolarda "kompaniyalar himoya qilinadi" degan ishonchsizlik kayfiyatini kuchaytiradi. Ko'plab murojaat qiluvchilar natija bo'lmagach, sug'urta tizimini butunlay inkor etish, umuman sug'urta xizmatlaridan foydalanmaslikka qaror qilmoqda – bu holat ijtimoiy xavfga aylanish ehtimoli bor¹⁷.

Yuqorida qayd etilgan tizimli muammolarning aksariyati rivojlangan mamlakatlarda ancha oldin hal etilgan bo'lib, u yerda samarali huquqiy va texnologik yondashuvlar shakllantirilgan. Quyida ushbu davlatlar tajribasi asosida muqobil yechimlar tahlil qilinadi.

O'zbekiston transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasi tizimining tahlili shuni ko'rsatadiki, tizimda mavjud muammolar ko'p yillardan buyon takrorlanib kelayotgan strukturaviy va institutsional sabablarga bog'liq. Bu muammolarni faqat normativ hujjatlar bilan emas, balki real statistik asosda, raqamli tahlil vositalarini qo'llagan holda bartaraf etish zarur. Quyida mavjud tizimli muammolar, ularning o'zaro bog'liqligi va hal qilish mexanizmlari bo'yicha tavsiyalar statistik asosda izohlanadi.

MBRAning 2023-yilgi hisobotiga ko'ra, majburiy sug'urta qamrovi 64,7% ni tashkil qilgan, bu 2015-yildagi 42% ko'rsatkichga nisbatan sezilarli o'sishni anglatadi. Biroq transport vositalari soni 4,5 milliondan oshgani sababli, 1,6 milliondan ortiq avtomobil sug'urtalanmagan holda qatnashmoqda ¹⁸. (6-jadval)

6-jadval. Sug'urta qamrovining pastligi: raqamli tahlili.

Yil	Ro'yxatdan o'tgan avtomobillar (ming)	Sug'urta qamrovi (%)	Sug'urtalanmagan transport vositalari (ming)
2019	3300	51.2	1610
2020	3550	53.5	1650
2021	3800	56.0	1670
2022	4200	59.8	1690
2023	4500	64.7	1590

Ushbu ko'rsatkichlar sug'urta xizmatlari ommaviyligini oshirish borasida tashkiliy va texnologik uzilishlar mavjudligini anglatadi.

MBRA hisobotlariga ko'ra, 2023-yilda transport sug'urtasi bo'yicha 3 260 ta rasmiy shikoyat kelib tushgan. Ularning 60% sug'urta kompaniyalari tomonidan kechiktirilgan yoki rad etilgan to'lovlarga taalluqli. Bu kompaniyalar faoliyatida shaffoflik va fuqaroga xizmat ko'rsatish sifati sustligini ko'rsatadi. (7-jadval)

2023-yilda fuqarolik javobgarligi sug'urtasi bo'yicha onlayn tuzilgan shartnomalar ulushi atigi 25% ni tashkil etdi. Ko'p hollarda bu kompaniyalarning texnik tayyorgarligi, yagona portalning yo'qligi va fuqarolarning raqamli savodxonligi bilan bog'liq. 2023-yilda o'tkazilgan so'rovnomasiga ko'ra, respondentlarning 42% sug'urtaning vazifasi haqida noaniq tushunchaga ega, 31% esa kompaniyalarga ishonmasligini bildirgan. Bu tizimning fuqarolar tomonidan faqat "majburiy hujjat" sifatida qabul qilinayotganini ko'rsatadi.

7-jadval: Shikoyatlar dinamikasi: to'lovlar sifati va ishonch.

Yil	Shikoyatlar soni	To'lov bilan bog'liq shikoyatlar (%)
2019	1940	54%
2020	2200	56%
2021	2580	58%
2022	2990	59%
2023	3260	60%

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash tizimining rivojlanishi bo'yicha o'tkazilgan kompleks tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud huquqiy asoslar va

¹⁷ "Sug'urta orqali aldanganlar": O'zbekiston shikoyatlar tizimida islohot kerakmi? – Daryo.uz maqolasi, 2023-yil 16-oktabr. <https://daryo.uz>

¹⁸ Moliya Bozorini Rivojlantirish Agentligi. (2023). Sug'urta bozorining holati bo'yicha statistik hisobot.



moliyaviy institutlarning shakllanganligiga qaramay, ushbu tizimning to'laqonli ishlashi uchun zarur bo'lgan institutsional komponentlarni yanada kuchaytirish zarur.

O'zbekistonda transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasi institutini rivojlantirish bo'yicha muhim bosqichlar boshlab yuborilgan bo'lib, bu sohadagi tizimli yondashuvlar kelgusida yanada takomillashishi uchun katta salohiyatga ega. Mavjud holat tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, sug'urta qamrovi, kompaniyalar faoliyatining shaffofligi, raqamlashtirish darajasi va aholining sug'urta madaniyati kabi yo'nalishlarda yanada samarali choralarni amalga oshirish orqali ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash mumkin.

Avvalo, sug'urtaning ijtimoiy samaradorligini oshirish maqsadida uni texnik ko'rik, ro'yxatdan o'tkazish va yo'l harakati nazorati tizimlari bilan uzviy bog'lash orqali majburiylik mexanizmlarini kuchaytirish lozim. Shu bilan birga, kompaniyalar faoliyatini yagona elektron platforma orqali monitoring qilish va raqamli xizmatlarni kengaytirish hisobiga shaffoflik, tezkorlik va qulaylik darajasini oshirish mumkin.

Da'volarni ko'rib chiqish jarayoniga mustaqil arbitrlk yoki ombudsman tizimining joriy etilishi fuqarolarning ishonchini mustahkamlashi barobarida, adolat tamoyillarini yanada kuchaytiradi. Shartnoma shartlarini soddalashtirish va ularni aholiga tushunarli tilda taqdim etish esa sug'urtaning mazmun-mohiyatini to'g'ri anglashga xizmat qiladi.

Shuningdek, aholining sug'urta savodxonligini oshirish maqsadida tizimli ta'lim dasturlari va keng ko'lamli axborot-kampaniyalarini amalga oshirish, shuningdek, sug'urta kompaniyalari faoliyati yuzasidan ochiq reytinglar e'lon qilish orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolik javobgarligi sug'urtasi institutini mustahkamlash nafaqat transport sohasidagi iqtisodiy xavflarni kamaytiradi, balki fuqarolarning moliyaviy himoyasi, huquqiy xavfsizligi va jamiytdagi ijtimoiy ishonch darajasining ortishiga xizmat qiladi. Tizimning bosqichma-bosqich va kompleks rivojlanishi barqaror va adolatli jamiyat sari muhim qadam bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Moliya Bozorini Rivojlantirish Agentligi (MBRA). (2023). Sug'urta sektori faoliyati bo'yicha yillik tahliliy hisobot. Toshkent. <https://mf.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. (2022). Sug'urta shartnomalarining huquqiy asoslari va tahlili bo'yicha metodik qo'llanma. Toshkent: Yuridik nashriyoti.
3. Davlat Statistika Qo'mitasi. (2023). Transport vositalari bo'yicha yillik statistik byulleten. Toshkent. <https://stat.uz>
4. OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development). (2022). Insurance Market Trends Report 2022. Paris: OECD Publishing. <https://www.oecd.org/insurance/>
5. Korea Insurance Research Institute (KIRI). (2021). Smart Claims and AI in Motor Insurance: Efficiency Overview. Seoul: KIRI Publications.
- 6.
7. Sigorta Tahkim Komisyonu (Turkiya). (2022). Annual Arbitration Report on Motor Insurance. Ankara: STK. <https://www.sigortatahkim.org>
8. Bank Negara Malaysia. (2022). Insurance Literacy Program Annual Review. Kuala Lumpur: Central Bank of Malaysia. <https://www.bnm.gov.my>
9. Bundesanstalt für Finanzdienstleistungsaufsicht (BaFin). (2022). Motor Vehicle Insurance Oversight and Compliance Report. Bonn: BaFin.
10. Polish Ministry of Digital Affairs. (2023). Digital Integration of Transport and Insurance Services. Warsaw. <https://www.gov.pl>
11. "Norma.uz" tahliliy portali. (2023). O'zbekistonda raqamli sug'urtaning joriy holati va istiqbollari. Toshkent: Norma nashriyoti. <https://www.norma.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
